

SINGAPURNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDAGI FALSAFIY
PARADIGMASI VA UNI AMALGA OSHIRISH STRATEGIYASI.

Rustamova Jasmina Jamshid qizi
O'ralova Marjona Zafar qizi
Safarova E'zoza Bahodir qizi
Samarqand davlat universiteti
Kattaqo'rg'on filiali
Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili
Yo'nalishi 3- bosqich talabalari
Email : shoxa4118@gmail.com
Email : oralovamarjona585@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada "korrupsiya" atamasi haqida, Singapur tarixi to'g'risida qisqacha ma'lumot, Singapurda korrupsiya holati, Li Kuan Yuning korrupsiyaga qarshi fikrlari va amaldagi ishlari, Singapurning korrupsiyaga qarshi falsafiy paradigmasi va strategiyasi, korrupsiyaga qarshi holatdan so'ng, korrupsiyaning tez fursatda kamayishi, va Singapurning korrupsiya bo'yicha yutug'i haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar : Korrupsiya, paradigma, strategiya, Li Kuan Yu, evolyutsiya.

Аннотация : В этой статье обсуждается термин «коррупция», краткая история Сингапура, состояние коррупции в Сингапуре, антикоррупционные мысли и действия Ли Куан Ю, антикоррупционная

философская парадигма и стратегия Сингапура, пост-антикоррупция и быстрый рост Сообщается о сокращении коррупции и прогрессе Сингапура в борьбе с коррупцией.

Ключевые слова : Коррупция, парадигма, стратегия, Ли Куан Ю, эволюция.

Annotatsion: In this state, the term 'corruption', a short history of Singapore, the state of corruption in Singapore, anti-corruption thoughts and actions of Lee Kuan Yew, anti-corruption philosophical paradigm and strategy of Singapore. post-anti-corruption and the quick truth will be discussed.

Key words: Corruption, paradigm, strategy, Lee Kuan

Yew, evolution.

«Korrupsiya» atamasining ma'nosi. «corupsiya» atamasi lotincha «sorrumpere - sorrhuptio» degan so'zdan olingan bo'lib, o'zbek tilidagi «floslangan», «porae vaziga o'tib o'qilish buzilish, aynish, tanazzul, sotib og'dirish, yuborish, buzish, parchalash, sindirish, shikast yetkazish» degan ma'nolarni anglatadi. Bu atama, odatda mansabdor shaxs tomonidan unga ishonib topshirilgan vakolatlar va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar uchun jamiyat tomonidan o'atilgan qonunlar va axloqiy tamoyillarga zid bolgan holda foydalanishni anglatuvchi ushuncha hisoblanadi. Bulardan tashqari, korrupsiya mafiyalashgan davlatlarga xos bo'lgan tipik holat, ya'ni mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning sotqinlik qilishini

ham anglatadi. Shu tariqa, Yevropa tillariga tegishli bo'lgan mazkur atama, o'zining dastlabki asl ma'nosidan ko'ra kengroq ma'noni anglatadi, ya'ni semantik ahamiyat kasb etadi. Korrupsiyaning xarakterli belgisi mansabdor shaxsning xatti-harakatlari bilan uning ish beruvchisi manfaatlarini o'rtasidagi ziddiyat yoki saylangan shaxsning xatti-harakatlari bilan jamiyat manfaatlarini o'rtasidagi ziddiyat hisoblanadi. Odatda, korrupsiyaning ko'p turlari mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan firibgarlikdan borat bo'lib, ular davlat organlariga qarshi jinoyatlar toifasiga kiradi. XV-XVI asrlarda Singapur Johor saltanati tarkibiga kirgan. 1819-yilda Britaniyaning Ost-Indiya kompaniyasi vakili Singapurda turli etnik guruhlar immigratsiyasiga ruxsat beruvchi savdo zonasi tuzish haqida Johorsulton bilan kelishuv tuzdi. 1867-yilda Singapur Britaniya imperiyasi koloniyasiga aylandi. Ikkinchi jahon urushi davrida Singapur 1942-yildan 1945-yilning sentabriga qadar Yaponiya ixtiyoriga o'tdi. 1959-yildan Singapur Britaniya imperiyasi tarkibidagi o'z-o'zini boshqaruvchi davlatga aylandi. Saylovlardan so'ng Li Kuan Yu bosh vazir lavozimini egalladi. 1965-yilning 9-avgustida Singapur mustaqillikka erishdi. Boy tabiiy resurslardan mahrum Singapur 1959-yildan 1990-yilga qadar ko'plab ichki muammolarni yengib, uchinchi dunyo mamlakatlaridan yashash darajasi yuqori,

yuksak rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishga muvaffaq bo'ldi. Singapur 1965 yilda mustaqillikka erishgan payti korrupsiya botqog'ida edi. Mamlakat o'ta og'ir iqtisodiy kunlarni boshdan kechirar, jamiyatda qonunsizlik hukm surardi. O'sha vaqtdagi bosh vazir Li Kuan Yuning qat'iyati tufayli XX asr oxiriga borib Singapur korrupsiya keskin kamaygan va rivojlangan mamlakatga aylandi. Mustaqillikka erishgan Singapurda, bir tomondan, Britaniya mustamlakachiligi paytida yozilgan qonunlar zaif, ikkinchi tomondan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishga qodir emasdi. Amaldorlarning aksariyati esa korrupsiyaga ruju' qo'ygandi. Aholining ko'pchiligi savodsiz bo'lib, o'z huquqlarini himoya qilolmasdi. Korrupsiyaga qarshi kurash boshlagan birinchi hukumat gator muammolarga duchor bo'ldi. Unga qarshi kurashni tartibga soluvchi qonun ochiqchasiga zaif edi. Ko'plab korrupsion jinoyatlar qonun doirasidan chetda qolar, tegishli organlar esa o'z vazifasini samarali ado etish uchun zarur vakolatga ega emasdi. Amaldorlarning ko'pchiligi poraxo'r, qonunchilik esa samarasiz bo'lgani sababli jinoyatchini jazoga tortish o'ta murakkab edi. Davlat amaldorlari xususiy sektor xodimlaridan o'z shaxsiy manfaatlarini yo'lida foydalanishi odatiy hol edi, bunga qonun ustuvor emasligidan tashqari, aholi savodxonligi va huquqiy madaniyati darajasi pastligi ham sabab edi. Pora maqsadga erishishning yagona usuliga aylanib qolgandi. "Bojxona amaldorlari kontrabanda va taqiqlangan mahsulotlarni tashiydigan transport vositalarini tekshirishni tezlashtirish uchun pora olardi, - degandi. Li Kuan Yu o'sha vaqtdagi vaziyat haqida. Markaziy ta'minot xizmati xodimlari muayyan pul evaziga manfaatdor shaxslarga tenderga kelib tushgan arizalar haqida ma'lumot berardi. Import-eksport departamenti amaldorlari ruxsatnomani tezlashtirib bergani uchun pora olardi. Tekshiruvchilar kamchiliklarga ko'zyumishlari uchun pudratchilar ularga pora taklif qilardi. Do'kondorlar va uy egalari axlatni olib ketgani uchun Jamoat sog'liqni saqlash departamentiga haq to'lardi. Maktab direktori va o'qituvchilari kanselyariya mahsulotlari keltiruvchilaridan foiz olardi. Hokimiyat tizginidan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanishga o'tilganida inso ixtirochilik qobiliyatining chegarasi yo'qoladi" Korrupsiyaga qarshi kurashning boshlanishi

KAgar biz boshqarayotgan davlat hokimiyati ko'pchilikning hayotini yaxshilash emas, kamchilikning cho'ntagini qappaytirish payida bo'lsa, ahvolimiz chatoq boladi", degandi LiKuan Yu. Birinchi navbatda, Singapur korrupsion harakatlar sodir etish imkoniyatini qisqartirish yo'lidan bordi. Xususan, amaldorlarning harakatlari tartibga solindi mustahkam korrupsion aloqalar shakllanmasligi uchun ularning rotatsiyasi yo'lga qo'yildi. Byurokratik o'siqlar bartaraf etildi, davlat xizmatchilarining yuqori odob-axloq standartlariga rioya etishi ustidan kuchli nazorat o'rnatildi. Mazkur choralarni hayotga tatbiq etishda Korrupsiya holatlarini tergov qilish byurosi ulkan rol o'ynadi. Fuqarolar Byuroga davlat xizmatchilarining harakatlari ustidan shikoyat bilan murojaat qilish va ziyonni undirib berishni talab qilish imkoniga ega bo'ldi. Korrupsiya holatlari haqida xabar beruvchilarning himoyasi va nomi yashirin qolishi ta'minlandi. Bir vaqtning o'zida korrupsiya harakatlari uchun jinoiy jazo kuchaytirildi, sud tizimi mustaqiligi ta'minlandi, sudyalarning maoshlari keskin oshirildi, ularningitimoiy maqomi ta'minlandi, pora berganlik yoki korrupsiyaga qarshi tergovda ishtirok etishdan bo'yin tovlaganlik uchun sezilarliq iqtisodiy jazo joriy etildi. Bojxona xizmati va boshqa ko'plab davlat tashkilotlarida xodimlarni yoppasiga ishdan bo'shatishgacha bo'lgan qattiq choralar ko'rildi. Ushbu choralar davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish, davlat xizmatchilarining maoshini oshirish, malakali ma'muriy kadrlarni tayyorlash orqali amalga oshirildi. "Iqtidorli insonlar davlatning ko'proq qimmatli merosi sanaladi", - degan edi Li Kuan Yu. Darhaqiqat, u iqtidorlinsonlarni yuksak qadrlagan va aynan shunday insonlar davlatni rivojlantiradi, deb nisoblagan. Uning: "Agar mamlakat noto'g'ri boshqarilsa, barcha aqlli insonlar uni tark etadi" degan mashhur fikri esa korrupsiyani jilovlamaslikqanday jiddiy oqibatlarini keltirib chigarishini ko'rsatadi. Shularni hisobga olib, "miyalar"ning xususiy sektorga o'tib ketishini kamaytirish maqsadida davlat xizmatchilarining ish haqi muttasil oshirib borildi. Mas'uliyatli lavozimdagi davlat xizmatchilarining maoshlari xususiy korporatsiyalardagi top- menejyerlarniki bilan teng darajaga ko'tarildi. Sudyalarning ish haqlari keskin - yiliga bir necha yuz ming dollarga olib chigildi, 90-yillarda bu ko'rsatkich 1 mln dollardan ham oshdi. Shunga muvofiq, sudyalik lavozimiga munosib kadrlar, xususan, kuchli advokatlar jalb etila boshlandi. 1989 va 1994 yillarda yuqori martabali davlat xizmatchilarining ish haqini qayta ko'rib chigish natijasida maoshlar shu qadar oshirildiki, Singapur bu borada dunyoda 1-o'ringa chigib oldi. Shu bilan birga, 1995 yilda xususiy sektorning daromadi pasaygani sababli, 1997 yilda mansabdorlarning maoshlari kamaytirildi. Shularni hisobga olib, "miyalar"ning xususiy sektorga o'tib ketishini kamaytirish maqsadida davlat xizmatchilarining ish haqi muttasil oshirib borildi. Mas'uliyatli lavozimdagi davlat xizmatchilarining maoshlari xususiy korporatsiyalardagi top- menejyerlarniki bilan teng darajaga ko'tarildi. Sudyalarning ish haqlari keskin - yiliga bir necha yuz ming dollarga olib chigildi, 90-yillarda bu ko'rsatkich 1 mln dollardan ham oshdi. Shunga muvofiq, sudyalik lavozimiga munosib kadrlar, xususan, kuchli advokatlar jalb etila boshlandi. 1989 va 1994 yillarda yuqori martabali davlat xizmatchilarining ish haqini qayta ko'rib chigish natijasida maoshlar shu qadar oshirildiki, Singapur bu borada dunyoda 1-o'ringa chigib oldi. Shu bilan birga, 1995 yilda xususiy sektorning daromadi pasaygani sababli, 1997 yilda mansabdorlarning maoshlari kamaytirildi. 1960 yildagi qonun bilan Singapurda barcha davlat xizmatchilariga nisbatan korrupsiya bo'yicha aybdorlik prezumpsiyasi joriy etilgan.

Bu shuni anglatadiki, davlat xizmatchisi o'zining maoshi yetmaydigan xarajatlarga qo' ura yoki mol-mulkka egalik qlsa, u o'z harakatining qonuniy ekanini isbotlab bermaguncha aybdor hisoblanadi va tergovga jalb etiladi. Tergov yakunida davlat xizmatchisini jinoiy javobgarlikka tortish uchun dallar yetarli bo'lmasa va shu bilan birga, uning korrupsiyaga yo'l qo'ygani bo'yicha ayrim ma'lumotlar mavjud bo'lsa, bunday holatda unga nisbatan intizomiy jazo qo'lanardi. Bundan tashqari, barcha amaldorlar va ularning oila a zolari daxlsizlik huquqidan mahrum etilgan. Byuro agentlari nafaqat amaldorlarga, balki ularning polalari, xotini, qarindoshlari va hatto do'stlariga tegishli bank hisobraqamlarini ham tekshirish huquqini qo'lga kiritdi. Shunga muvofiq, agarda mansabdor va uning oilasining xarajatlari qonuniy topilayotgan daromaddan yuqori bo'lsa, ushbu holat Byuroga tergovni boshlash uchun kifoya bo'ladi. Byuro, odatda, oliy hokimiyat organlaridagi yirik poraxo'rlarni tergov qiliish bilan shug'ullanadi. Mayda poraxo'rlik holatlariga qarshi esa byurokratiyani yo'qotish, qaror qabul qilish jarayonlarini soddalashtirish, qonunlardagi ikki xil tushuniladigan normalarni bartaraf qilish, uncha muhim bo'lmagar sohalarda ruxsat berish va litsenziyalash tartibini bekor qilish choralari bilan kurashilgan. Shu bilan birga, sudlarga korrupsion yo'l bilan orttirilgan daromad va mol-mulkni musodara qilish vakolati berilgan Poraxo'r yaqinlarini ham ayamagan Li Kuan Yu " Oldimda ikkita yo'l bor edi. Birinchisi: o'g'irlash va do'stlarim ham qarindoshlarimni "Forbs" reytinglariga kiritish, shu bilan birga xalqimni och yalang'och holda qoldirish. Ikkinchi yo'l: xalqimga xizmat qilish va yurtimni eng yaxshi mamlakatlar o' ntagiga olib kirish. Men ikkinchi yo'lni tanladim". - Li Kuan Yu Singapur hukumati korrupsiyani "quritish" borasidagi reja va maqsadlarini amaliyotga ko'chirish uchun o'zida yetarlicha siyosiy iroda topa oldi. Elitar korrupsiya holatlari ayovsiz jazolandi. Mustaqil Byuro hokimiyatning eng oliy darajalarida ham poraxo'rlikka qarshi kurash olib bordi. "Korrupsiyaga qarshi kurashishnido'stingizni qamoqqa jo'natishdan boshlang. Siz ham, ular ham nima sababdan ekanini yaxshi bilasiz", - deya hech kimni ayab o'tirmasligiga shama qilgandi bosh vazir. Shunga mos ravishda, hatto Li Kuan Yuning eng yagin qarindoshlari ham korrupsiya bo'yicha tergovga jalb etildi. Korrupsiyaga aloqador qator amaldorlar turli muddatlarga ozodlikdan mahrum qilindi yoki o'z hayotiga suiqasd qildi yoki mamlakatdan qochib ketdi. Ular orasida Li Kuan Yuning qadrdon do'sti Vi Tun Bun ham bor edi. Kuan Yun o'zining yaqin do'sti, vazir lavozimida ishlagan Vi Tun Buni ham ayab o'tirmagandi. 'Vi Tun Bun 1975 yilda Indoneziyaga oilasibilan birga sayohatga borganida atrof- muhitni muhofaza qilish vaziri lavozimida ishlardi. Sayohat pulini esa uy-joyqurayotgan pudratchi tashkilot to'lab bergan. U mazkur pudratchidan qiymati 500 ming singapur dollari turadigan koshonani pora sifatida oladi, shuningdek, 300 ming dollarlik ikkita kreditni otasi nomiga pudratchi kafolati asosida rasmiylashtiradi. Maqsad bu puldan fond bozorida chayqovchilik maqsadida foydalanish edi. Vi Tun Bun 1950-yillardan boshlab sadoqatli nokommunist yetakchi bo'lgan

shuning uchun uni himoya qilish va ozining aybsiz ekani xususidagi ishonchsiz deb tonilish " tanga ogir urinishlarini eshitish menga og'ir bo'ldi. U aybdor deb topilib, 4 yil 6 oylik qamoq jazosiga hukm qilindi. Hukm ustidan shikoyat qilishiga qaramay, u kuchda qoldirildi, garchi qamoq muddati 18 oyga kamaytirilgan bo'lsa ham', - deya xotirlaydi Li Kuan Yu o'z esdaliklarida. Shunga ko'ra, mamlakat rahbarlari korrupsiya ildizi bilan qo' porib tashlanmasa, mamlakatning kelajagi yo'qligini tushunib yetdi. Bu esa qat'iy va izchil

choralar tizimini qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qildi, 1960 yilda qabul gilingan qonun bilan korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi tasdiqlandi, Korrupsiya holatlarini tergov qilish byurosiga maxsus vakolatlar berildi. Darvoqe, shaxsan Li Kuan Yu va uning oila a'zolari ham Byuro tomonidan bir necha bor tekshirilgan biroq tekshiruvlarda bosh vazirning korrupsiyaga aloqadorligi aniqlanmagan. Hozirgi paytda Singapur korrupsiya ko'lami kamligi, iqtisodiy erkinlik va taraqqiyot darajasi bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlarda bormoqda. Singapur korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi o'zining qat'iyligi va izchilligi bilan ajralib turadi. Bu mamlakatdagi falsafiy paradigma "korrupsiyani nazorat qilish mantigi" ga asoslanib: "korrupsiyani yo'q qilishga urinishlar ham ragbatlantiruvchi, ham shaxsni korrupsiyaviy harakatlarni sodir etishga undash uchun imkoniyat yaratadigan sharoitlarni minimallashtirish yoki yo'q qilish istagiga asoslangan bo'lishi kerak", degan g'oyaga asoslanadi. Bu paradigmada: birinchidan, mansabdor shaxslarning harakatlarini tartibga solish; ikkinchidan, byurokratik protseduralarni soddalashtirish; uchinchidan, yuksak axloqiy-ma'naviy me'yorlarga rioya qilish ustidan qat'iy nazoratni kuchaytirish masalasi ilgarisurilgan edi. 1965 yilda mustaqillik davrida Singapur korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakat edi. Undan qutilish uchun qonunchilik

kuchaytirildi, sud hokimiyatining mustagilligi oshirildi (yuqori ish haqi va sudyalarning imtiyozli maqomi bilan), pora bergani yoki korrupsiyaga qarshi tergovda qatnashishdan bosh tortganligi uchun iqtisodiy sanksiyalar joriy etildi va bojxona xodimlari va boshqa davlat xizmatlarini toliq ishdan bo'shatishgacha qattiq choralar korildi. Bu iqtisodiyotni tartibga solish mansabdor shaxslarning ish haqini oshirish va ma'muriy kadrlarni tayyorlash bilan birlashtirildi. Korrupsiya holatlarini tergov qiluvchi avtonom Byuro tuzildi va u fuqarolarning davlat xizmatchilari ustidan shikoyatini va ular tomonidan yetkazilgan zararni undirib beruvchi markazga aylantirildi. Shu tariqa, ayni paytda Singapur korrupsiya, iqtisodiy erkinlik va rivojlanishning yuqoriligi bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi.

Xususan, Transparency International tomonidan 2020 yil uchun e'lon qilingan reytingda Singapur korrupsiya bo'yicha eng past ko'rsatkichli

mamlakatlar orasida 3-o'rinni oldi. Atigi 4 million aholi istiqomat qilayotgan Singapur tajribasi siyosiy iroda, samarali antikorrupsion qonunchilik va pulga sotilmas mustagil agentlik evaziga bir necha o'n yilda korrupsiyani juda past

darajaga tushirish mumkinligini namoyish etdi. Demak, hamma narsadan ko'ra qonun ustuvorligini afzal ko'rish, jamiyatda hammaning qonun oldida

tengligi prinsipini targ'ib qilish va unga amal qilish, buyo'lda yuqori martabali amaldorlar va qarindoshlarni ham ayamaslik orqali korrupsiyani bartaraf etsa bo'lar ekan.

Ilova :

1.Korrupsiya - lotincha " orruptio " so'zidan olingan bo'lib, pora berib sotib olish ,buzilish ,ishdan chiqish ,axloqiy (ma'naviy) buzilish degan ma'nolarni anglatadi .

2.Paradigma - (grekcha - "namuna", "andoza ") ilmiy yutuqlar majmui.

3.Strategiya - (yunoncha - strategiya stratos - qo'shin + ago - boshlab boraman).

4.Li Kuan Yu - (1923 - 2015) .Osiyodagi "Singapur mo'jizasi " asoschisi .

5. Evolyutsiya - (lotincha : evolution "avj olish ") .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Falsafa. Darslik (barcha bakalavr yo'nalishlari uchun). – Samarqand: SamDU nashri, 2021.
2. Private Sector | Corrupt Practices Investigation Bureau“ (en). www.cpib.gov.sg. Qaraldi: 16-aprel 2022-yil.
3. ↑ „Ex-SLA employees sentenced to at least 15 years' jail“. sg.news.yahoo.com.
4. ↑ „Gallery: Corruption trial of ex-SCDF chief Peter Lim underway“. MediaCorp Press Ltd. Qaraldi: 13-yanvar 2015-yil.
5. ↑ Leonard Lim. „CPIB: Top men were arrested, being probed for graft“. Straits Times (26-yanvar 2012-yil).
6. Chong, Elena. „Ex-police officer charged with Warning dance clubs on raids“ C. my paper.
7. T Ho, Olivia. “Singapore ranked fourth least Corrupt country in the world, cleanest in Asia” C.